2026-yil
9(1)-son

“FAN VA TA’LIM YANGILIKLARI”

ILMIY - METODIK

JURNALI

saen.uz

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
9(1)-son

Bosh muharrir:
Shoumarov G‘ayrat Bahromovich, psixologiya fanlari doktori, akademik

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Qodirov Umarali Do‘stqobilovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Mas’ul kotib:
Muqimov Alisher

Texnik muharrir:
Qarshiyev Jamshid Murotaliyevich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.

TAHRIR HAY’ATI:

01.00.00 – FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
Ayupov Shavkat Abdullayevich, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
A’zamov Abdulla, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
Zohidov Erkin A’zamovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

02.00.00 – KIMYO FANLARI
Normaxamatov Nodirali Soxobataliyevich, kimyo fanlar doktori, professor
Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, kimyo fanlar doktori, akademik

03.00.00 – BIOLOGIYA FANLARI
Abdurahmonov Ibrohim Yo‘lchiyevich, biologiya fanlari doktori, akademik
Sulaymonov Botirjon Abdushukurovich, biologiya fanlari doktori, akademik

04.00.00 – GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI
Fayziyev Abdulhaq Radjabovich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor
Husanov Sultonboy To‘xtayevich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor

05.00.00 – TEXNIKA FANLARI
Allayev Qahramon Rahimovich, texnika fanlari doktori, akademik
Majidov Inom Urishevich, texnika fanlari doktori, professor
Turobjonov Sadritdin Maxamatdinovich, texnika fanlari doktori, akademik
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

06.00.00 – QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI
Namozov Shodmon Ergashovich, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, akademik
Shoumarov Hikmat Bahromovich, qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, professor

07.00.00 – TARIX FANLARI
Ziyo Azamat Hamid o‘g‘li, tarix fanlari doktori, akademik
Sagdullayev Anatoliy Sagdullayevich, tarix fanlari doktori, akademik
Yusupova Diloram Yunusovna, tarix fanlari doktori, akademik

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI
Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, iqtisod fanlari doktori, akademik
Musayev Behzod Anvarovich, iqtisod fanlari nomzodi
To‘xliyev Nurislom, iqtisod fanlari doktori, akademik
G‘ulomov Saidahror Saidahmedovich, iqtisod fanlari doktori, akademik

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9(1)-son

09.00.00 – FALSAFA FANLARI
Nazarov Qiyom Normirzayevich, falsafa fanlari doktori, professor
Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich, falsafa fanlari doktori, professor

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI
Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor
Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich, filologiya fanlari doktori, akademik
Xidirov Rajab Gulmatovich, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (Tojikiston)

11.00.00 – GEOGRAFIYA FANLARI
Nigmatov Asqar Nigmatullayevich, geografiya fanlari doktori, professor
Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, geografiya fanlari doktori, professor

12.00.00 – YURIDIK FANLAR
Rustamboyev Mirzayusuf Hakimovich, yuridik fanlar doktori, professor
Saidov Akmal Xolmatovich, yuridik fanlar doktori, akademik
Xolmo'minov Jumanazar Toshtemirovich, yuridik fanlar doktori, professor
Qodirov Bobiromon Bekmurodovich, yuridik fanlar doktori, professor

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI
Djurayev Risboy Haydarovich, pedagogika fanlari doktori, akademik
Ibraimov Xolboy, pedagogika fanlari doktori, akademik
Musurmonova Oynisa, pedagogika fanlari doktori, professor
Umarov Bahrom Norboyevich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

14.00.00 – TIBBIYOT FANLARI
Akilov Xabibulla Ataullayevich, tibbiyot fanlari doktori, professor
Nazirov Feruz Gafurovich, tibbiyot fanlari doktori, akademik

15.00.00 – FARMATSEVTIKA FANLARI
Abdullabekova Viloyat Nurillabekovna, farmatsevtika fanlari doktori, professor
Tulaganov Abduqodir Abdurahmonovich, farmatsevtika fanlari doktori, professor

16.00.00 – VETERINARIYA FANLARI
Daminov Asadullo Suvonovich, veterinariya fanlari doktori, professor
Jabborov Shuhrat Abdumajidovich, veterinariya fanlari doktori, professor
G'afurov Aktam G'afurovich, veterinariya fanlari doktori, professor

17.00.00 – SAN'ATSHUNOSLIK FANLARI
Ahmedova Nigora Rahimovna, sanatshunoslik fanlari doktori, professor
Hakimov Akbar Abdullayevich, san'atshunoslik fanlari doktori, akademik

18.00.00 – ARXITEKTURA FANLARI
Nozilov Dodo Avazovich, arxitektura fanlari doktori, professor
Uralov Axtam Sindarovich, arxitektura fanlari doktori, professor

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI
Abdusamatov Hasanboy Usmonjon o'g'li, psixologiya fanlari doktori, professor
Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor
Karimova Vasila Mamanosirovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Halimova Mashraboy Vohidovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Lazar Drajeta, psixologiya fanlari doktori, professor, Belgrad, Serbiya
Karpinskiy Konstantin Viktorovich, psixologiya fanlari doktori, professor, Grodno, Belarussiya
Suletbayeva Ella Serikbayevna, psixologiya fanlari doktori, dotsent

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9(1)-son

22.00.00 – SOTSIOLOGIYA FANLARI
Bekmurodov Mansur Bobomurodovich, sotsiologiya fanlari doktori, professor
Toshmuhamedova Dilorom Gafurdjanovna, sotsiologiya fanlari doktori

23.00.00 – SIYOSIY FANLAR
Fayzullayev Alisher Omonullayevich, siyosiy fanlar doktori, professor
Hasanov Otabek Abdurashidovich, siyosiy fanlar doktori
Paxrutdinov Shukritdin Ilyasovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Omonov Baxtiyor Axtamovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Quronboyev Qahramon Qo'chqorovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Avazov Komil Xolliyevich, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori

24.00.00 – ISLOMSHUNOSLIK FANLARI
Ibrohimov Ne'matulla, filologiya fanlari doktori, akademik
Islomov Zohidjon Mahmudovich, filologiya fanlari doktori, professor

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9(1)-son

UDK: 681.142.371:12

Majidov Azim Kaxxarovich,
Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

TERMIZIY ALLOMALAR TA'LIMOTIGA KO'RA SHAXS KAMOLOTIDA MA'NAVIY-MA'RIFIY INSTITUTLARNING O'RNI

Annotatsiya. Maqolada Termiziy allomalar ta'limotida shaxs kamolotining ma'naviy-axloqiy va ma'rifiy asoslari hamda ushbu jarayonda ma'naviy-ma'rifiy institutlarning o'rni tahlil etilgan. Xususan, Abu Iso at-Termiziy, Hakim at-Termiziy va Termiz zaminidan yetishib chiqqan boshqa allomalar ilmiy-ma'naviy merosida insonning axloqiy yetukligi, ilm-ma'rifatga intilishi, ezgulik, bag'rikenglik, adolat va jamiyat oldidagi mas'uliyati masalalariga alohida e'tibor qaratilgani yoritilgan. Shuningdek, oila, ta'lim muassasalari, mahalla, masjid va boshqa ma'naviy-ma'rifiy institutlarning yosh avlod tarbiyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish hamda shaxsning ijtimoiy faolligini oshirishdagi ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Termiziy allomalar, shaxs kamoloti, ma'naviy-ma'rifiy institutlar, ma'naviy tarbiya, axloqiy yetuklik, ilm-ma'rifat, ta'lim, oila, mahalla, milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar.

РОЛЬ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННЫХ И ПРОСВЕТИТЕЛЬСКИХ ИНСТИТУТОВ В ФОРМИРОВАНИИ ЛИЧНОСТИ НА ОСНОВЕ УЧЕНИЯ ТЕРМЕЗИЙСКИХ МЫСЛИТЕЛЕЙ

Аннотация. В статье анализируются духовно-нравственные и просветительские основы формирования личности в учении термезийских мыслителей, а также роль духовно-просветительских институтов в данном процессе. Особое внимание уделено вопросам нравственного совершенствования человека, стремления к знаниям и просвещению, добродетели, толерантности, справедливости и ответственности перед обществом, отражённым в научном и духовном наследии Абу Исы ат-Термизи, Хакима ат-Термизи и других учёных, вышедших из Термезского региона. Раскрывается значение семьи, образовательных учреждений, махалли, мечети и других духовно-просветительских институтов в воспитании молодого поколения, формировании национальных и общечеловеческих ценностей, а также повышении социальной активности личности.

Ключевые слова: термезийские учёные, развитие личности, духовно-просветительские институты, духовное воспитание, нравственное совершенствование, знания и просвещение, образование, семья, махалля, национальные ценности, общечеловеческие ценности.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9(1)-son

THE ROLE OF SPIRITUAL AND ENLIGHTENMENT INSTITUTIONS IN THE FORMATION OF PERSONALITY BASED ON THE TEACHINGS OF IMAM AL-TIRMIDHI AND TIRMIDHI SCHOLARS

Abstract. This article analyzes the spiritual, moral, and educational foundations of personal development in the teachings of Tirmidhi scholars, as well as the role of spiritual and educational institutions in this process. Particular attention is paid to the issues of moral perfection, pursuit of knowledge and enlightenment, virtue, tolerance, justice, and social responsibility reflected in the scholarly and spiritual heritage of Abu Isa al-Tirmidhi, Hakim al-Tirmidhi, and other scholars from the Tirmidh region. The article also examines the importance of the family, educational institutions, mahalla, mosque, and other spiritual and educational institutions in educating the younger generation, developing national and universal human values, and enhancing social engagement.

Keywords: Tirmidhi scholars, personal development, spiritual and educational institutions, spiritual education, moral development, knowledge and enlightenment, education, family, mahalla, national values, universal human values.

Kirish. Bugungi globallashuv jarayonlari jadal kechayotgan, axborot almashinuvi tezlashayotgan sharoitda yoshlarning turli axborot manbalari bilan bevosita va muntazam aloqaga kirishishi ularning dunyoqarashi, ijtimoiy qarashlari hamda ma'naviy-axloqiy pozitsiyasiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, internet va ijtimoiy tarmoqlarning keng ommalashuvi natijasida turli mazmundagi axborotlar, jumladan, yoshlar ongiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan yot g'oyalar, mafkuraviy ta'sirlar va axborot xurujlarining tarqalish imkoniyatlari ham kengaymoqda. Bunday sharoitda talabalarda mustaqil fikrlash, axborotni tanqidiy baholash, turli g'oyaviy ta'sirlarni farqlash hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan barqaror dunyoqarashni shakllantirish ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Mazkur vazifani amalga oshirishda milliy pedagogik va ma'naviy merosdan samarali foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, Markaziy Osiyo ilmiy-ma'rifiy muhitida shakllangan Termiziylar ilmiy maktabi vakillarining boy merosi yoshlar tarbiyasini mazmunan boyituvchi muhim manbalardan biridir. Termiziylar ilmiy merosida ilmga intilish, odob-axloq, insonparvarlik, halollik, adolat, kattalarga hurmat, o'zaro hurmat va mas'uliyat kabi qadriyatlar muhim o'rin egallaydi. Mazkur qadriyatlar yoshlarning ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirish bilan bir qatorda, ularning turli salbiy mafkuraviy ta'sirlarga nisbatan ongli va barqaror munosabatini rivojlantirish uchun ham muhim pedagogik asos bo'la oladi.

Shu jihatdan Termiziylar ilmiy merosini faqat tarixiy yoki diniy manba sifatida emas, balki yosh avlodni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashga xizmat qiluvchi pedagogik manba sifatida o'rganish dolzarbdir. Ayniqsa, hadislar

mazmunidagi ijtimoiy munosabat, muomala madaniyati, shaxsning jamiyat oldidagi mas'uliyati va o‘z xatti-harakatlariga tanqidiy yondashish bilan bog‘liq g‘oyalarni zamonaviy ta'lim jarayoniga moslashtirish talabalarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishning samarali yo‘nalishlaridan biri bo‘lishi mumkin.

Shuningdek, mafkuraviy immunitetni shakllantirish jarayonida talabaning faqat tashqi salbiy ta'sirlardan himoyalanishi emas, balki mazkur ta'sirlarni anglash, ularni tahlil qilish va mustaqil ravishda to‘g‘ri xulosa chiqarish qobiliyatini rivojlantirish muhimdir. Bu jarayonda milliy-ma'naviy meros namunalari yoshlarning o‘zligini anglash, qadriyatlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish va ijtimoiy mas'uliyatini kuchaytirishga xizmat qilishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, Termiziylar ilmiy merosida aks etgan axloqiy, ma'rifiy va ijtimoiy qarashlarni zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tahlil qilish hamda ularning talabalarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishdagi imkoniyatlarini aniqlash mazkur tadqiqotning dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Termiziylar ilmiy merosining muhim namoyandalaridan biri Abu Iso Muhammad Termiziy bo‘lib, uning hadis ilmi rivojiga qo‘shgan hissasi Sharq ilmiy tafakkuri tarixida alohida o‘rin tutadi. Allomaning "Al-Jome' as-sahih" ("Sunani Termiziy") asari hadis ilmining muhim manbalaridan biri sifatida e'tirof etilishi bilan birga, undagi mazmun va g‘oyalar yoshlar tarbiyasi uchun ham muhim ahamiyatga ega. Asarda insonning axloqiy qiyofasi, odob-axloq qoidalari, o‘zaro munosabatlar, jamiyatda o‘zini tutish madaniyati va shaxslararo hurmatga oid ko‘plab hadislar jamlangan. Mazkur manbalarda ifodalangan ma'naviy-axloqiy mezonlar insonni ezgulikka, halollikka, adolatga, boshqalarning huquq va manfaatlarini hurmat qilishga undaydi. Bunday fazilatlarning shakllanishi esa yoshlarning turli salbiy g‘oyaviy ta'sirlarga nisbatan ongli munosabatini kuchaytirishi mumkin.

"Al-Jome' as-sahih"ning pedagogik ahamiyati bilan bir qatorda, unda ijtimoiy-psixologik mazmun ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Asarda keltirilgan hadislar insonning atrofidagi kishilar bilan munosabatga kirishish jarayonida ularning ruhiy holati, ijtimoiy mavqei va hissiy kechinmalarini hisobga olish zarurligiga e'tibor qaratadi. Chunki insonlararo munosabatlarda sodir bo‘ladigan ayrim xatti-harakatlar tashqi jihatdan oddiy ko‘rinsa-da, shaxsning ruhiy holatiga va uning jamoaga bo‘lgan munosabatiga sezilarli ta'sir ko‘rsatishi mumkin.

Masalan, bir guruh odamlar yig‘ilgan joyda o‘tirish tartibiga rioya qilmaslik, jamoa a'zolaridan birini noqulay vaziyatga tushirish yoki boshqalarning roziligisiz ularning orasiga joylashish kabi holatlar ijtimoiy munosabatlarda salbiy tasavvurlar shakllanishiga olib kelishi mumkin. Shu nuqtai nazardan "Al-Jome' as-sahih"da Abu Mijlaz (r.a.)dan rivoyat qilingan hadisda halqa shaklida o‘tirgan jamoaning o‘rtasiga kelib o‘tirgan kishi haqida Huzayfa (r.a.) tomonidan bildirilgan ogohlantirish keltiriladi [2]. Ushbu hadisni pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilganda, unda jamoada o‘zini tutish, boshqalarning shaxsiy va ijtimoiy hududiga

hurmat bilan munosabatda bo‘lish, muomala madaniyatiga rioya qilish kabi tarbiyaviy jihatlar mujassam ekanini ko‘rish mumkin.

“Al-Jome’ as-sahih” asarining mafkuraviy-tarbiyaviy ahamiyati, avvalo, unda ilgari surilgan axloqiy me’yorlarning shaxs dunyoqarashini shakllantirishga yo‘naltirilganligi bilan belgilanadi. Asarda jamlangan hadislar orqali insonning jamiyatdagi xulq-atvori, o‘zaro hurmat, adolat, bag‘rikenglik va mas’uliyat kabi qadriyatlar izchil yoritiladi. Bunday yondashuv shaxsda ma’naviy mezonlarning shakllanishiga, turli qarashlarni baholashda muayyan ichki mezonlarga ega bo‘lishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, “Al-Jome’ as-sahih”ning “Kutubi sitta” tarkibidagi muhim hadis to‘plamlaridan biri sifatida e’tirof etilishi uning ilmiy va ma’rifiy ahamiyatini yanada oshiradi. Asarda hadislarning fiqhiy jihatlari bilan bir qatorda, ularning mazmunini tushuntirishga qaratilgan sharh va mulohazalar ham uchraydi. Bu esa manbani turli masalalarga bir tomonlama emas, balki mulohaza va tahlil asosida yondashish imkonini beruvchi muhim ilmiy-ma’rifiy manba sifatida baholashga asos bo‘ladi.

Tadqiqotda Termiziylar ilmiy merosining talabalarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishdagi pedagogik imkoniyatlarini aniqlash maqsadida tarixiy-pedagogik, qiyosiy-tahliliy va mazmuniy tahlil metodlaridan foydalanildi. Termiziylar merosida aks etgan axloqiy, ma’rifiy va ijtimoiy g‘oyalar zamonaviy ta’lim-tarbiya jarayonining talablari bilan qiyosiy jihatdan tahlil qilindi. Shuningdek, hadislarning mazmuni shaxsning ijtimoiy xulq-atvori, muomala madaniyati, mas’uliyati va mustaqil fikrlashi bilan bog‘liq jihatlar asosida o‘rganildi. Tadqiqotning metodologik asosini milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg‘unligi, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim hamda ma’naviy-axloqiy tarbiya tamoyillari tashkil etdi.

Muhokama. Termiziylar ilmiy merosida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg‘unligi alohida o‘rin tutadi. Hadislarda ota-onaga hurmat, kattalarni e’zozlash, mehmonnavozlik, bag‘rikenglik, o‘zaro hurmat, halollik va adolat kabi insoniy fazilatlar keng yoritilgan. Mazkur qadriyatlar o‘zbek xalqining tarixiy-ma’naviy tajribasi va milliy mentaliteti bilan hamohang bo‘lib, ularni yoshlar tarbiyasida qo‘llash milliy o‘zlikni anglash va ma’naviy barqarorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Shu o‘rinda Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.)dan rivoyat qilingan: “Hech qaysi biringiz bir birodaringizni o‘tirgan joyidan turg‘izib, keyin u joyga o‘tirmasin”, mazmunidagi hadisga e’tibor qaratish mumkin. Mazkur hadis insonlar o‘rtasidagi munosabatlarda hurmat va muomala madaniyatiga rioya qilish zarurligini anglatadi. Bunday yondashuv pedagogik nuqtai nazardan talabalarga jamoada o‘zini tutish, boshqalarning qadr-qimmatini hisobga olish va o‘z xatti-harakatining boshqalarga ta’sirini anglash ko‘nikmalarini shakllantirish imkonini beradi.

Jamoada biror kishining o‘rnidan turishga majburlanishi yoki uning o‘rni boshqalar tomonidan egallanishi ayrim holatlarda kamsitilish yoki e’tiborsizlik

hissini yuzaga keltirishi mumkin. Bunday holat muntazam takrorlansa, shaxsning jamoaga bo‘lgan ishonchi pasayishi, norozilik kayfiyati kuchayishi yoki o‘zini boshqa guruhlar tomonidan qabul qilinishini izlashga moyilligi ortishi ehtimoli mavjud. Shu sababli yoshlar tarbiyasida nafaqat ochiq mafkuraviy ta’sirlarni, balki shaxsning jamoaga mansublik, qadrlanish va hurmat qilinish ehtiyojlari bilan bog‘liq psixologik omillarni ham hisobga olish muhimdir.

Bu jihat mafkuraviy immunitet tushunchasining faqat muayyan g‘oyalarga qarshi turish qobiliyati bilan cheklanmasligini ko‘rsatadi. Shaxsda o‘z qadrini anglash, boshqalarning fikrini hurmat qilish, turli qarashlarni tahlil qila olish va muammoli vaziyatlarda oqilona qaror qabul qilish ko‘nikmalari ham shakllangan bo‘lishi lozim. Termiziylar merosidagi axloqiy mezonlar aynan shunday shaxsiy sifatlarni tarbiyalash uchun ma’naviy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Xuddi shuningdek, Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning “Hech kimga ruxsatlari bo‘lmasdan ikki kishi orasiga kirib, ularni ajratishi joiz emas” [2], mazmunidagi hadis ham pedagogik va psixologik jihatdan muhim ahamiyatga ega. Ushbu ko‘rsatma shaxsning boshqalarning shaxsiy hududi va o‘zaro munosabatlariga hurmat bilan yondashishi, jamoaviy muhitda muayyan me’yorlarga rioya qilishi zarurligini ifodalaydi. Bunday xatti-harakatlarning oldini olish jamoada o‘zaro ishonch va hurmat muhitini shakllantirishga yordam beradi. Shu ma’noda xalqimizning “Har yigitning aslin bilay, desangiz, ma’rakada o‘tirib-turishin ko‘ring” degan naqli ham insonning xulq-atvori va muomala madaniyati uning shaxsiy fazilatlarini namoyon etishini anglatadi.

Yuqoridagi misollar shuni ko‘rsatadiki, hadislar mazmunida bayon etilgan odob-axloq qoidalari oddiy kundalik xatti-harakatlar bilan cheklanmay, shaxsning jamoadagi mavqei, o‘zaro ishonch va ijtimoiy barqarorlikka ham ta’sir qiluvchi omillar sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli Termiziylar davrida shakllangan ma’naviy-ma’rifiy muhit — madrasa, masjid va ustoz-shogird an’analari — ta’lim va tarbiyaning o‘zaro uyg‘unligini ta’minlashga xizmat qilgan muhim institutlar sifatida qaralishi mumkin.

Termiziylar ilmiy merosining pedagogik jihatlaridan yana biri bilim va axloqning bir-biridan ajratilmaganligidir. Ilm olish jarayonida shaxsning bilim darajasi bilan bir qatorda uning odobi, mas’uliyati va jamiyatdagi xulq-atvoriga ham e’tibor qaratilgan. Bu tamoyil zamonaviy oliy ta’lim tizimida ham o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Chunki zamonaviy mutaxassis nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmalarga, balki ijtimoiy mas’uliyat, muloqot madaniyati va mustaqil fikrlash qobiliyatiga ham ega bo‘lishi zarur.

Ustoz-shogird munosabatlari ham Termiziylar ilmiy merosining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ilm olish jarayonida ustozning shaxsiy namunasi, axloqiy qiyofasi va ilmga munosabati shogird uchun tarbiyaviy vosita vazifasini bajargan. Bunday an’ana orqali hurmat, mas’uliyat, sadoqat va ilmga intilish kabi sifatlar shakllangan. Zamonaviy ta’lim jarayonida ushbu an’anani ustozning shaxsiy

namunasi, pedagogik muloqot madaniyati va talabaning mustaqil fikrini qo‘llab-quvvatlash tamoyillari orqali davom ettirish mumkin.

Termiziylar ilmiy merosida oilaviy va jamoaviy tarbiyaga ham katta e’tibor berilgan. Hadislarda farzand tarbiyasi, ota-onaning mas’uliyati, qarindoshlik munosabatlari, jamoa a’zolari o‘rtasidagi hurmat va o‘zaro mas’uliyat masalalari keng yoritilgan. Mazkur tarbiyaviy qarashlar shaxsning ijtimoiy muhitda to‘g‘ri munosabat o‘rnatishi, jamiyatdagi o‘z o‘rnini anglashiga yordam beradi. Demak, mafkuraviy immunitetni shakllantirishda oilaviy tarbiya, ta’lim muassasasi va ijtimoiy muhitning o‘zaro hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Natijalar. Termiziylar ilmiy merosini pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilish natijasida talabalarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish birgina targ‘ibot yoki axborot berish bilan cheklanmasligi, balki shaxsning ma’naviy-axloqiy, intellektual va ijtimoiy kompetensiyalarini birgalikda rivojlantirishni talab qilishi aniqlandi. Bunda talabaning o‘zligini anglashi, milliy qadriyatlarga hurmati, axborotni tahlil qilish qobiliyati va diniy-ma’rifiy masalalarga ilmiy hamda xolis yondashuvi muhim omillar sifatida namoyon bo‘ladi.

Birinchi navbatda, axloqiy tarbiyani kuchaytirish muhim yo‘nalish hisoblanadi. Halollik, adolat, mas’uliyat, o‘zaro hurmat va insonparvarlik kabi qadriyatlarni ta’lim jarayonida muntazam yoritish talabaning xulq-atvor mezonlarini shakllantirishga yordam beradi. Bunday ichki mezonlar shaxsning turli axborot va g‘oyaviy ta’sirlarni baholashida ma’naviy tayanch vazifasini bajaradi.

Ikkinchi yo‘nalish — milliy qadriyatlarni singdirish. Talabalarning milliy tarix, madaniyat, allomalar merosi va ma’naviy an’analar haqidagi bilimlarini chuqurlashtirish ularning o‘zlikni anglash va milliy mansublik tuyg‘usini mustahkamlaydi. Milliy qadriyatlarga asoslangan dunyoqarash yoshlarning tashqi ta’sirlarga nisbatan ongli va tanqidiy munosabatini shakllantirish uchun muhim zamin yaratadi.

Uchinchi yo‘nalish — tanqidiy fikrlashni rivojlantirish. Zamonaviy axborot makonida yoshlarni faqat ma’lum bir g‘oyalarni qabul qilishga yo‘naltirish yetarli emas. Ularni axborot manbasini aniqlash, dalillarni tekshirish, turli qarashlarni qiyoslash va mustaqil xulosa chiqarishga o‘rgatish zarur. Shu jihatdan Termiziylar merosini o‘rganish jarayonida ham talabalarni matn mazmunini tahlil qilish, uning tarbiyaviy mohiyatini aniqlash va zamonaviy ijtimoiy vaziyatlar bilan bog‘lashga yo‘naltirish mumkin.

To‘rtinchi yo‘nalish — diniy-ma’rifiy bilimlarni to‘g‘ri va ilmiy asosda yetkazish. Diniy mazmundagi manbalarni yuzaki yoki biryoqlama talqin qilish turli noto‘g‘ri qarashlarning shakllanishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu bois Termiziylar merosini o‘rganishda manbaning tarixiy, ilmiy, axloqiy va pedagogik mazmunini kompleks tahlil qilish, hadislarning mazmunini ishonchli manbalar asosida tushuntirish muhimdir. Bunday yondashuv yoshlarning diniy-ma’rifiy savodxonligini oshirish bilan birga, turli noto‘g‘ri talqin va mafkuraviy manipulyatsiyalarga nisbatan tanqidiy munosabatini ham rivojlantiradi [1].

Termiziylar ilmiy merosini zamonaviy ta'lim tizimiga integratsiya qilishda uni alohida diniy mazmundagi material sifatida emas, balki axloqiy tarbiya, ma'naviy-ma'rifiy ta'lim va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish vositasi sifatida qo'llash maqsadga muvofiq. Jumladan, tegishli fanlar doirasida hadislarning tarbiyaviy mazmunini tahlil qilish, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda Termiziylar ilmiy merosiga murojaat etish, milliy merosga bag'ishlangan seminar va davra suhbatlarini tashkil etish, talabalarni manbalarni mustaqil o'rganishga yo'naltirish mumkin. Bunday yondashuv talabalarning ma'naviy dunyoqarashini boyitish va mafkuraviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi [3].

Shuningdek, Termiziylar merosidan foydalanishda talabalarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olish muhim. Ta'lim jarayonida tayyor xulosalarni berishdan ko'ra, hadis mazmuni asosida muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, hayotiy misollarni muhokama qilish va mustaqil xulosa chiqarishga imkon yaratish samaraliroq natija berishi mumkin. Bu esa ma'naviy tarbiyani shaxsning faol fikrlashi bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi.

Xulosa. Termiziylar ilmiy merosi yosh avlodni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, ularda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmatni shakllantirish hamda ijtimoiy munosabatlarda mas'uliyatli xulq-atvorni rivojlantirish uchun muhim ilmiy-ma'rifiy manba hisoblanadi. Abu Iso Muhammad Termiziyning "Al-Jome' as-sahih" asarida keltirilgan hadislar mazmunida insonning jamiyatdagi xulq-atvori, o'zaro hurmat, odob-axloq, adolat va mas'uliyat bilan bog'liq ko'plab tarbiyaviy g'oyalar o'z ifodasini topgan.

Tadqiqot tahlillari shuni ko'rsatadiki, Termiziylar ilmiy merosidan talabalarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishda foydalanish axloqiy tarbiya, milliy qadriyatlarni anglash, tanqidiy fikrlash va diniy-ma'rifiy savodxonlikni rivojlantirish bilan uzviy bog'liq holda tashkil etilgandagina samarali bo'lishi mumkin. Bunda asosiy e'tibor yoshlarni faqat salbiy g'oyalardan himoya qilishga emas, balki ularning mustaqil fikrlaydigan, axborotni tahlil qila oladigan, o'z qadriyatlariga sodiq va ijtimoiy mas'uliyatli shaxs sifatida shakllanishiga qaratilishi lozim.

Shu sababli oliy ta'lim muassasalarida Termiziylar ilmiy merosidan foydalanishga asoslangan ma'naviy-ma'rifiy mashg'ulotlar, manba tahlili, muammoli vaziyatlarni muhokama qilish, seminar va davra suhbatlarini tashkil etish maqsadga muvofiq. Bunday pedagogik yondashuv milliy-ma'naviy merosni zamonaviy ta'lim mazmuni bilan uyg'unlashtirish, talabalarning ma'naviy dunyoqarashini boyitish va mafkuraviy barqarorligini mustahkamlash uchun qo'shimcha imkoniyat yaratadi.

Shuningdek, Termiziylar ilmiy merosidan foydalanishda uning mazmunini zamonaviy pedagogik va psixologik yondashuvlar bilan uyg'unlashtirish, talabalarni tayyor xulosalarni qabul qilishga emas, balki manbalarni mustaqil tahlil qilish, turli qarashlarni qiyoslash va dalillarga asoslangan xulosalar chiqarishga yo'naltirish muhimdir. Bu esa milliy-ma'naviy qadriyatlarni chuqur anglagan holda, zamonaviy

axborot makonida mustaqil fikrlay oladigan, turli mafkuraviy ta'sirlarni tanqidiy baholaydigan va ijtimoiy mas'uliyatni his qiladigan shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu ma'noda Termiziylar ilmiy merosidan ta'lim-tarbiya jarayonida tizimli va metodik asosda foydalanish talabalarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishning samarali pedagogik vositalaridan biri sifatida qaralishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.
2. Abilov O'. Yoshlar o'rtasida axborot xavfsizligini ta'minlashning o'ziga xos xususiyatlari. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 3(11), November, 2023. – B. 500–504.
3. Abu Iso Termiziy. Sunani Termiziy. Tarjimon: Mirzo Kenjabek. – Toshkent: QAMAR MEDIA, 2022. – 528 b.
4. Izbullaeva G. Pedagogika nazariyasi va tarixi (Pedagogika tarixi XIII–XIV asrlar). O'quv qo'llanma. – Buxoro: "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona nashriyoti, 2019. – 180 b.
5. Uvatov U. Ikki buyuk donishmand (Abu Iso at-Termiziy, Al-Hakim at-Termiziy). – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. – 112 b.
6. Uvatov U. Imom Termiziy. – Toshkent: "Shamsiddinxon Boboxonov", 2021. – 104 b.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
9(1)-son

Muassis - "FAN VA INNOVATSIYA YANGILIKLARI" MCHJ
Jurnal hamkori - «PROFI UNIVERSITY»

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 24-may kuni № 454068-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Jurnal 2024-yilda tashkil etilgan, 1 oyda bir marta o'zbek, tojik, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, rus va ingliz tillarida nashr etiladi.

Tahririyat manzili: 190110, Toshkent shahri Uchtepa tumani, Bog'iston MFY, 14-mavze, 8-uy.

Telefonlar: +998 90 749 00 00
+998 90 749 77 77
+998 91 902 05 01
E-mail: saen_2024@mail.ru
Jurnal sayti: www.saen.uz
Telegram kanali: **https://t.me/saen_2024**

Maqolada keltirilgan fakt va ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldirlar.

"Fan va ta'lim yangiliklari" ilmiy-amaliy jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining qarori (25.08.2025 y., №374/5) bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

ISSN: 3093-8694